



Mening sevimli qahramonim

Buxoro Davlat Universiteti geografiya ixtisosligi
10-1 GEO-24 guruhi 1-bosqich magistranti
Nematova Xurshida Xayitovna

Bugun biz quyidagilar haqida gaplashamiz:

- Mening sevimli qahramonim kim va nimaga uni tanladim?
- “Jayhun ustida bulutlar” asarining muallifi
- Abu Rayhon Beruniy haqida qisqacha ma'lumot
- Beruniyning menga yoqqan jihatlari
- Xulosa

Abu Rayhon Beruniy

- Abu Rayhon Beruniy 4-sentyabr 973-yilda tavallud topgan va 1048-yilda vafot etgan. U Oʻrta Osiyoning eng mashhur olimlaridan biri boʻlib, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan. Beruniy qadimgi dunyo va Sharq ilm-fanini chuqur oʻrganib, koʻplab yangi gʻoyalarni ilgari surgan.

“Jayhun ustida bulutlar” *asarining muallifi*

- Mirkarim Osim 1907-yilda tugʻilgan. U mashhur oʻzbek yozuvchisi, tarjimon va adabiyotshunos olim va oʻzining asarlari bilan tanilgan boʻlib, oʻzbek adabiyotida muhim oʻrin egallaydi. U yoshligidan ilm-fan va adabiyotga qiziqib, tarjimonlik va yozuvchilik faoliyatini olib borgan.

Mening sevimli qahramonim

- Mening sevimli qahramonim bu “Jayhun ustida bulutlar” asaridagi Abu Rayhon Beruniy obrazidir. U mehribon, ijodkor va dono odam edi. U doimo ilm olishga intilar edi.

Mirkarim Osimning “Jayxun ustida bulutlar” asari bu buyuk mutafakkir-abu Rayhon Beruniyga bag’ishlangan tarixiy qissadir.

- Asarda Beruniyning yoslik yillari,ilmiy intilishi,ilmdan zavqlanishi,sifatlari va nazariyasi bayon etilgan.Uning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq – juda ilimli donishmand inson bo’lib,Bog‘dod va Shomga safarlar qilgan,kutubxonasini yunon faylasuflarining asarlari bilan boyitgan,shogirdi Beruniyga arab tili, handasa,hisob kabi ilmlarni o’rgatgan.

Beruniy obrazining asardagi tasviri

- Beruniyning bilim olish jarayonlari-usturlobdan foydalanish, arabcha soʻzlarni oʻrganishi, dorivor oʻsimliklarni bilishi va ularni tahlil qilishi-hammasi asarda jonli qilib tasvirlangan. Shuningdek ustoz Abu Nasr ibn Iroqning ishtiyoqiga qarab unga tahsil berishi, moddiy yordam bilan taʼminlashi oʻziga xos tarzda asarda tasvirlangan.

Beruniyning menga yoqqan jihatlari

Beruniy

Dono

Bilimdon

Keng
dunyo
qarashli

Mehribon

Ilg'or

Tilshunos

Xulosa

Beruniyga ergashish – bilimga intilish, haqiqatni izlash va o‘z ustida doimiy ishlashdir. Agar siz uning yo‘lidan borishni istasangiz, har kuni yangi narsalarni o‘rganing, tafakkuringizni rivojlantiring va ilmiy haqiqatga asoslangan fikrlashni odat qiling. Eng muhimi, o‘rganganlaringizni hayotda qo‘llab, atrofingizdagi odamlarga foyda keltiring.